



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

"ZUMRAT" NOMLI

TO'GARLAR DAVRASI

KATTAKORLIK



“TASDIQLAYMAN”
____sonli MTT direktori

____sonli maktabgacha ta’lim tashkilotida tashkil etilgan “Zumradoylar”
to‘garagiga qatnashadigan tarbiyalanuvchi qizlar ro‘yxati.

| | Bolalarning ismi sharifi | Tug‘ilgan yili | Guruh |
|-----|--------------------------|----------------|-------|
| 1. | | | |
| 2. | | | |
| 3. | | | |
| 4. | | | |
| 5. | | | |
| 6. | | | |
| 7. | | | |
| 8. | | | |
| 9. | | | |
| 10. | | | |
| 11. | | | |
| 12. | | | |
| 13. | | | |
| 14. | | | |
| 15. | | | |
| 16. | | | |
| 17. | | | |
| 18. | | | |
| 19. | | | |
| 20. | | | |

Tarbiyachi _____

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, ularni madaniy, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalarida qatnashish ko‘nikmalarini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, qizlar bandligini oshirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘inida

Birinchi tashabbus 1990-yildagi rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qizlarning qatnashishini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus sport sohasidagi jismoniy chiqarish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilgan.

Uchinchi tashabbus 2000-yildagi yoshlarning kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishini oshirishga yo‘naltirilgan.

To‘rtinchi tashabbus yoshlarning o‘qishni yo‘qotganlarini qayta o‘qitish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan.

Beshinchi tashabbus xotimachilikni ta’minlash masalalarini nazarda tutadi

2023-2026 yillarga mo‘ljallangan 1990-yildagi O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, erishilgan yoshlarning muvaffaqiyatli islohot jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tarish, inson huquqlarini ta’minlash, ularni ta’lim va g‘ururini yetakchi o‘ringa olib chiqish ustuvor vazifani o‘z ichiga olgan. Davlatimizning tinchlik va barqarorlikni saqlash, davlatimizning mustaqilligini ta’minlash, sarhadlarimiz daxlsizligini ta’minlash, millatlararo munosabatlarni oshirish va hamjihatlikni mustahkamlashga intilish ko‘p millatli davlatimizni birlashtirgan, yuksak marralarga safarbar etadigan beqiyos kuchga aylantirgan.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash dasturi»dagi yoshdagi bolalar ta’lim tarbiyasiga mas’ul kishilar zimmasini o‘z ustasiga olib bora olinadigan shaxs etishtirib berish vazifasini yuklaydi. Zero, jamiyat taraqqiyotida avvalambor o‘z avjini olgan bo‘lgan yosh avlodni har tomonlama sog‘lom va ilmiy yurtimizga qaytarib, o‘z bobolarining ma’naviy va axloqiy yuksak qadriyatlarini o‘zlarining tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tasdiqlangan Davlat dasturida mamlakatimizda yoshlarning sog‘lom va etuk insonlar bo‘lib etishishi uchun bir qator vazifalar belgilangan. Maktabgacha ta’lim Davlat dasturi vazifalarini amalga oshirishda Davlat tavsiyalar yaratilyapti. Jumladan maktabgacha yoshdagi (3-7 yosh) qizlarning orastalik, sarishtalik, mehnatsevarlik, ibo-hayo, to‘g‘ri so‘zlilik kabi go‘zal tarbiyalashga qaratilgan “Zumradoylar davrasi” to‘garagi yo‘riqnomasi misol tariqasida keltirish mumkin.

“Zumradoylar davrasi” to‘garagi yo‘riqnomasi bolalarning mehnatsevarlik, to‘g‘riso‘zlik, rostgo‘ylik, kamtarlik, o‘z tug‘ishganlariga, qan uchun urug‘lariga, yaqin do‘stlariga nisbatan mehr-muhabbatli bo‘lishga, sog‘lom turmush tarzini tarbiyalashga qaratilgan.

“Zumradoylar davrasi” to‘garagi yo‘riqnomasi zaminida uyda o‘zini tutish, otanasini aytganiga quloq solish, aka-ukalariga g‘amho‘rlik ko‘rsatish, to‘g‘riso‘z bo‘lish, mehnat qilish, ilm olishga qiziqish, bo‘sh vaqtini bekor o‘tkazmaslik, tozalikka rioya

qilish, kattalar oldida odob saqlash, pazandalikdan ilk saboqlar olish kabi qator axloq-odob qoidalari, yo‘l-yo‘riqlari yotadi.

“Zumradoylar davrasi” to‘garagi yo‘riqnomasi bo‘yicha bolalar egallashi zarur bo‘lgan tushuncha, bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda murabbiy, ota-onalar bolalarni odob-axloq haqida tushunchalar bilan tanishtirish bo‘yicha davlat talablari ya‘ni ularga beriladigan bilimlar hajmini hamda uni amalga oshirish yo‘llari, uslublarini bilishlari kerak.

Ushbu uslubiy qo‘llanmada 3-7 yoshdagi qizlarga odob-axloq haqida tushunchalar aniq mavzularga bo‘lib berilgan. Bayon etilgan ta‘lim-tarbiya mavzularini suhbat, o‘yin, mehnat, sahnalashtirilgan lavhalar, shaklida, turli-tuman rasmlar, ertak, rivoyat, hikoyat, maqollardan foydalangan holda qiziqarli qilib o‘tish tavsiya etiladi.

“ZUMRADOYLAR DAVRASI” TO‘GARAGI TA‘LIMNING KONTSEPTSIYASI

Maktabgacha yoshdagi bolalarda odob va axloq tarbiyasi ma‘naviy va ma‘rifiy tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida uning umumiy boshlang‘ich tarbiya masalalariga muvofiq ravishda olib boriladi. Zero, maktabgacha ta‘lim yoshidagi shakllanadigan dastlabki ma‘naviy ong, his-tuyg‘u va axloq butun bolalik faoliyatiga, o‘zoro hamda kattalar bilan bo‘ladigan munosabatga u yoki bu tarzda ta‘sir etadi. Shunga ko‘ra bolalarda olib boriladigan odob va ahloqqa oid dastlabki tasavvurlar bevosita faoliyat jarayonida oila hamkorligida berilishi va unda quyidagilar hisobga olinishi zarur:

- bolalarning ilk yoshidan boshlab, ularga o‘zbek xalqining milliy urf-odatlarini, an‘analari va insoniy xislatlari asosida tarbiya berish;
- Madaniy – gigienik ko‘nikmalarni egallash va o‘z-o‘ziga xizmat qilish asosida tarbiya berish.

Tarbiya aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib bolalarning ijobiy-ruhiy kechinmalari, his-tuyg‘ularini uyg‘unlashtirish asosida insonparvarlik, mehribonlik, himmatlilik, o‘zaro g‘amxo‘rlik, o‘rtoqlik, o‘zaro yordam, o‘z faoliyatini mustaqil ravishda idora etish, kattalar topshirig‘ini bajarish, mustaqillikni namoyon qila bilish, batartiblik kabi his tuyg‘ular hisobga olinadi.

Bolalikdan madaniy – gigienik ko‘nikmalarni singdirib borish inson salomatligini ta‘minlaydi. Bolalarni mustaqil ravishda yuvinishga, qo‘llarning tozaligiga rioya qilishga, tishlarni to‘g‘ri tozalab, taranish, dastro‘moldan foydalanishga, ovqatdan so‘ng og‘izni chayishga o‘rgatilib boriladi.

Bolalarda mustaqillikni namoyon qila bilish: batartiblik, hamisha chiroyli ko‘rinishga ega bo‘lish ishtiyoqi, kiyimlarni tartibli ravishda echib, ularni joyiga osib qo‘yish, o‘ng va chap oyoq poyafzallarini farqlay bilish, ularni to‘g‘ri kiyish, ko‘zguga qarab kiyimlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish, dastro‘moldan to‘g‘ri foydalana olish, xonada tartib va ozodalikni saqlash, kiyimlarni toza va tartibli kiyishga odatlanishni tarbiyalash.

Bolalarga o'ziga xos gigiena: shamollatilgan xonada toza o'rin – ko'rpada uxlash, ertalab badantarbiya mashqlarini bajarish, suv muolajalari bilan mustaqil shug'ullanish, ichaklarni va qovuqni o'z vaqtida bo'shatib, hojatxonadan batartib ravishda foydalanish, burunni toza saqlash, moyoq va badan uchun foydalaniladigan sochiqlarni farqlash, toza dastro'mol foydalanishga o'rgatish.

O'z o'lkasining xalq pedagogikasining xazinasidir. Ertaklarning bosh qahramonlari bolalarga o'z o'lkasi, uyi, ota-onasiga muxabbat singdiriladi, yaqinlari bilan mehri-muhabbat, oqko'ngillik, ezgulik tarbiyalanadi. Shuningdek, qahramonlar jamunalari orqali bolalarda ezgulik, to'g'rilik, kamtarlik kabi xarakterliklar rivojlanadi. Adabiy manbalar asrlar mobaynida bolalarda eng yaxshi fazilatlarni tarbiyalarini oshiradi.

Bolalarni ma'naviyatlashishda o'z bo'yi e'zozlanib kelingan adabiy manbalardan foydalanish, nonusxa sifatida qabul qilish, uni isrof qilmaslik, pazandalikka qiziqish, tozalikka noya qiziqish bolalarda yaxshi xislatlarni tarkib toptirish xalq pedagogikasining asosi sifatida bir fikrni jamiyatning negizini tashkil etishi kerak.

Bolalar egallashi zarur bo'lgan tushuncha, bilim va ko'nikmalar.

1.O'zidan katta odamlarga o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yib, «Assalomu alaykum» deb salomlashish.

2.Ota-onani hurmat qilish, ularga ko'maklashish, yordamlashish ota-onaga sevinch olib kelishini his etish.

3.Kattalar, tengdoshlar orasida o'zini tuta bilish, xushmuomala, hamdard, mehribon, g'amxo'r bo'lish. O'z iltimosini xushmuomalalik bilan ifodalash. Ko'rsatilgan yordam uchun «rahmat» so'zlaridan foydalanish.

4.Uyda, ko'chada, jamoat joylarida o'zini tuta olish.

5.Yaxshi va yomon xulqlarni ajrata bilish: rostgo'ylik va yolg'onchilik, kamtarlik

6.Kattalar va o'rtoqlari bilan xushmuomalada bo'lish, «rahmat», «marhamat» so'zlaridan foydalanish.

7.Uyda, ko'chada o'zini tuta olish.

8.Yaxshi va yomon odatlarni farqlash.

9.Dasturxon atrofida o'zbekona urf-odatlarga amal qilish.

10.Mustaqil ravishda yuvinish, qo'llarning tozaligiga rioya qilish.

11.Qo'l, tishlarni to'g'ri yuvish.

12.Dastro'moldan to'g'ri foydalanish.

13.Batartib bo'lib yurish. Ko'zguga qarab kiyimlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish.

15.Xonada tartib va ozodalikni saqlash.

16.Kiyimlarni toza va tartibli kiyish.

17.O'ynab bo'lgandan so'ng o'yinchoqlarni joyiga olib qo'yish, ularni ehtiyotlash va toza saqlash.

18.Pazandalik bo'yicha ilk saboqlarni mustaqil bajarishda tajribaga ega bo'lish.

19.Oshxona asboblaridan ehtiyotkorona foydalanish.

20.Oshxona idishlarining dastalaridan qanday foydalanishni bilish.

Katta guruhlar uchun “Zumradoylar davrasi” to‘garagi mavzulari

| № | Suhbat mavzulari |
|----|---|
| 1 | Odob salomdan boshlanadi |
| 2 | Ota-onaga hurmat |
| 3 | Bizning oila |
| 4 | Buvi-buvajonlarimiz |
| 5 | Aka-uka, opa-singillarga hurmat |
| 6 | Qiz bolalarga xos fazilatlar |
| 7 | Tozalik - bu salomatlik |
| 8 | Qo‘l yuvish qoidalari bilan tanishtirish |
| 9 | Tish yuvish qoidalari bilan tanishtirish |
| 10 | Kiyinish odobi |
| 11 | Dasturxon odobi |
| 12 | Shirinso‘z bo‘lish |
| 13 | O‘rtoq bo‘lish odobi |
| 14 | Rostgo‘ylik |
| 15 | Yolg‘onchilik yomon odat |
| 16 | Kamtarlik |
| 17 | Pazandalik |
| 18 | Sabzovotlardan salat tayyorlash |
| 19 | Issiq ishlov berishni talab qilmaydigan ovqatlar tayyorlash |
| 20 | Mevalarni artish va dasturxonga tortish qoidalari |
| 21 | Sabzovotlardan salat tayyorlash |
| 22 | Issiq ishlov berishni talab qilmaydigan ovqatlar tayyorlash |
| 23 | Mevalar qaynatmasi (kompot) tayyorlash |
| 24 | Somsa tayyorlash |
| 25 | Olmali pirog tayyorlash |
| 26 | Murobboli pirog tayyorlash |
| 27 | Non tayyorlash |
| 28 | Onalar uchun nonushta tayyorlash |
| 29 | Onalar uchun tort tayyorlaymiz |
| 30 | Shirin kulchalar tayyorlash |
| 31 | Dangasalik yomon odat |
| 32 | Tejamkorlik- yaxshi odat |
| 33 | Suv muqaddasdir |
| 34 | Ko‘chada yurish odobi |
| 35 | Qush va jonzotlarga g‘amho‘rlik |
| 36 | Voqeaband ijroli o‘yinlar orqali bolalarga ahloqiy tarbiya berish |

1-mavzu: «Odob salomdan boshlanadi»

Bolalarga «Assalomu alaykum»-senga salomatlik tilayman, degan ma'noni anglatsa «Vaalaykum assalom» -“sizga ham salomatlik tilayman” ekanligini tushuntirish. O'zbekona milliy salomlashishning o'ziga xosligi: tabassum, ochiq chehra samimiy mehr bilan bir-biriga boqish, «Assalomu alaykum» deb salomlashganda ochiq chehralik va tabassum bilan salom beruvchi, alik oluvchi har ikki tomonlari bir-birlariga eshitarli bo'lishi kerakligi, agar bir kishiga ikkita kishi bir vaqtincha hujum bo'lsalar, ularning har biriga alohida-alohida javob qaytarishi lozimligini, salom beruvchi tomonining mohiyatini chuqur tushunib etishga, qadriga eta olish, to'g'ri javob berishni «Assalomu alaykum» iborasi haqidagi hikoyasidan o'qib berish.



Insonlar bir-birlarini ko'rganlarida «Assalomu alaykum» deydi. Assalomu alaykum degani, sizga tinchlik tilayman degani. Er tongdan uyqudan turib, yuz qo'llarimizni sovunlab yuvib, sochini to'qib, kiyimlarni hammasini kattalarga: buvi, buvajonlarga ota-onalarimizga, aka, opalarimizga, ko'ksingizga qo'yib salom beramiz.

Salomlashishning ham qoidalari bor: Xonaga kirganda birinchi bo'lib «Assalomu alaykum!» –deb salom beradi. Alik oluvchi har ikki tomonlari bir-birlariga javob qaytaradi. Katta kishilarga yoshlar birinchi bo'lib hurmat bildirish kerak.

«Vaalaykum assalom» degani sizga ham tinchlik tilayman degani.

Odobning boshi - Assalomu alaykum. Kimda-kim birinchi bo'lib salom beradi, uning odobli inson ekanligi bilinadi. Salomlashganda hushmuomalalik bilan salomlashish bilan gaplashganda iliqlik bilan, mehribonlik, g'amxo'rlik bilan gaplashish kerak.

Ko'cha-kuyda, qo'ni-qo'shnilarni ko'rganingizda, uchragan no'qushni ko'rganingizda o'ng qo'lni ko'ksingizga qo'yib, oldinga sal egilgan holda tavoze bilan salom berish kerak.

Assalom

N.Shodiev

Har kun tongda turaman,
Dildan quvnab yuraman.

Quyosh, maysa o'tloqda,

Yayrab desam Assalom,

Zavq olaman bir olam.

Maqollar

Yaxshilardan ibrat ol.
Odobning boshi salom.
Yomonlardan yiroq bo‘l.

O‘zing yaxshi, olam yaxshi.

Salomning qudrati

Bahaybat devlar bir yigilganda daryoi azimni quritar, osmono‘par tog‘larni qo‘lga olib, sardorlik qiladilar. Devlarini deb, uzoq safarga chiqqan yosh bahodir unga duch kelib qolib qolgan. Dev salomdan o‘ziga kelib:

-Va alaykum salom, yigit. Salomning bo‘lmaganda, ikki yamlab, bir yutardim. Anavini ko‘ryapman, tog‘dagi suyaklarini ko‘rsatib,- ular besalomlarning kallalari. Salom besalomning boshiga ham tushar edi. Maqsadingni ayt, ko‘z ochib yumganingni aytaraman. Shunda yosh bahodir:

-Do‘stim betob. Ushbu ma’noni anglatuvchi «Assalomu alaykum» so‘zi shunday ulug‘vor, barcha dunyodagi hatli devlar ham, vahshiy hayvonlar ham yovuz jodugarlar ham qo‘lga olib qolgan. Devlar ham, vahshiy

Xalq nazdida aytilishi uchun, barcha dunyodagi hatli devlar ham, vahshiy hayvonlar ham yovuz jodugarlar ham qo‘lga olib qolgan. Devlar ham, vahshiy hayvonlar ham yovuz jodugarlar ham qo‘lga olib qolgan. Devlar ham, vahshiy hayvonlar ham yovuz jodugarlar ham qo‘lga olib qolgan.

Yo‘l bosh

Salom bilan boshladi,

Bilsang odob va ahloq.

Salom bilan begona,

Bo‘lar tezda do‘st-inoq.

Salom, assalom ming-ming,

So‘zlar ichra durdona.

Salom har bir bolaning,

Odobidan nishona.

Salom

Yo‘l ustida uchragan

Kishiga bersang salom,

Alik olib avvali

Soʻngra der: rahmat bolam.

Salomsiz oʻtsang agar,

Shoʻrlik soqov ekan, der.

Tiling boʻlgach, albatta,

Kattalarga salom ber.

Maqollar

Odobning boshi - Salom.

Avval salom - keyin kalom.

Odob boshdan, nihol yoshdan.

Odobni beodobdan oʻrgan.

2-mavzu: «Ota- onaga hurmat»

Bolalarga ota-ona eng qadrlı inson ekanligini tushuntirish: ota-ona biz uchun eng aziz, eng yaqin kishilar. Ular farzandni dunyoga keltiradilar, umr buyi farzand deb yashaydilar. Shunday ekan, har bir bola uz ota-onasini hurmatini joyiga qo'yishi, ularning ko'ngilini og'ritmasligi kerak. Ular chaqirganda «Labbay», «Xo'p bo'ladi» deyish, ularga salom berishni kanda qilmaslik, nasihatlariga quloq solish, ularni hurmat bilan o'rindan turib qarshi olish, ota-onani suhbatini buzmaslik, qilayotgan ishlariga ko'maklashish, ularga to'rdan joy berish, qo'llariga suv quyish, sochiq tutish, yo'l berish, yo'llarini kesib o'tmaslik, ota-ona ruxsatisiz uzoq joylarga ketmaslik, ularga yolg'on gapirmaslik lozimdir. Farzand o'zining yaxshi odobi bilan ota-onasiga rahmat keltirishini tushuntirish.



Kechiring, oyijon!

Hikoya

Ahmadjon ko'chada o'rtoqlari bilan o'ynab qolib, uyga kech qaytdi. Onasi tashvishlanib o'tirgan ekan. U onasining holatini ko'rib hijolat bo'ldi va :

-Oyijon, meni kechiring, endi bunday qilmayman,-dedi. Onasining chehrasi biroz yozildi va:

-Ahmadjon, sen aqlli bolasan, men senga ishonaman,- dedi.

DILBAR

(Hikoya)

K.Rahim

Ikki yuzi qip-qizil, do'mboqqina Dilbar uyning o'rtasiga o'tirib olib, qaychi bilan rangli qog'ozni qiyib, qo'g'irchog'iga ko'ylak qilib o'tirar edi. Dilbar stol ustidan qo'g'irchog'ini olish uchun o'rnidan turgan edi, birdan etagiga yig'ib o'tirgan mayda qiyqindi qog'ozlar erga sochilib ketdi. Uyga yozilgan gilam iflos bo'ldi. Dilbar darrov katta-katta qog'ozlarni terib oldida, yo'lakda turgan supurgini olib uyning boshidan tozalab supurishga tushdi.

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

+99890-530-88-18 nomerga telegramdan yozishingiz yoki telegramdan jek456 izlab telegramga murojaat qilishingiz so'raladi. Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

Hujjat word variant doc formatda beriladi.

Katta guruhlarga 70 listdan iborat Zumradoylar to'garagini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Narxi: 10 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**